

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 11-son (iyun, 2026-yil).- 73 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Mamataliev Ikrom, Shadmanov Djamaliddin, Hakimova Iroda

TURLI AGROTEXNIK OMILLARNING G'O'ZA NAVLARIDA BIR KO'SAKDAGI PAXTA VAZNIGA TA'SIRI 5-9

Raxmonqulova Lola, Umurzakov Elmurod

SHAFTOLI BITINING LOVIYANI O'SISHI RIVOJLANISHI VA MAXSULDORLIGIGA

TA'SIRI..... 10-13

Norov Ilxom, Amanova Maxfurat

KUNJUT(SESAMUM INDICUM.L) NAV VA NAMUNALARINING DON HOSILDORLIK KO'RSATKICHIGA 1000 DONA DON VAZNINI TA'SIRI 14-17

FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza

O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY MATNLARIDA SEMANTIK MUVOFIQLIK: QIYOSIY

TAHLIL 18-21

Yo'ldoshova Jamila, Xidirova Munajat

QASHQADARYO VOHASIDA UCHRAYDIGAN VESPULA (THOMSON, 1869) AVLODI TURLARINING MORFOLOGIYASI 22-26

Mustofakulova Maftuna

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KONNOTATIV MA'NONING TADQIQI 27-31

Mahkamova Sevinch

RAQAMLI MUHITDA MUALLIFLIK HUQUQI BUZILISHINING ASOSIY SHAKLLARI VA ULARNING MEDIA MAKONDAGI NAMOYON BO'LISHI 32-34

Рустамова Тамила

СТРУКТУРНЫЕ И ОРИЕНТАЦИОННЫЕ МЕТАФОРЫ В РЕПРЕЗЕНТАЦИИ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ 35-38

Балясникова Марина

ОТ ПРИЗНАКА К СИМВОЛУ: ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ АНГЛИЙСКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С СУФФИКСОМ -LY 39-42

YURIDIK FANLAR

Eraliyeva Malika

GERMANIYA VA O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINING RIVOJLANISH

TENDENSIYALARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL..... 43-46

PEDAGOGIKA FANLARI

Gulamov Shavkat

FALSAFIY DEBATLAR ORQALI IJTIMOYIY MUAMMOLARNI TAHLIL QILISH 47-52

Mustafoyeva Noila

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING LEGAL WRITING COMPETENCE IN

LEGAL EDUCATION 53-57

Darmonova Adolat

BARQAROR TA'LIM MODELLARI ASOSIDA UMUMIY PEDAGOGIKANI RAQAMLI INTEGRATSIYADA O'QITISHNING ADAPTIV TEXNOLOGIYALARINI

TAKOMILLASHTIRISH 58-60

Sariboyeva Shaxnoza
IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR AXLOQIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI.....61-66

PSIXOLOGIYA FANLARI

Xalikova Guli
O'YIN VA INTERFAOL METODLAR ORQALI TIL O'RGANISH: PSIXOLOGIK VA TEXNOLOGIK
YONDASHUV67-72

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KONNOTATIV MA'NONING TADQIQI

Mustofakulova Maftuna

Katta o'qituvchi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda konnotativ ma'no hodisasining ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilishi tahlil etiladi. Maqolada "konnotatsiya" terminining paydo bo'lish tarixi, uning turli tilshunoslik maktablari va yo'nalishlarida qanday talqin qilinishi ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, konnotatsiyaning semantik, psixolingvistik va sof lingvistik yo'nalishlarda o'rganilishi, uning guruhlariga ajratilishi (Blumfeld, Arnold, Komlev klassifikatsiyalari), shuningdek, denotatsiya va konnotatsiya o'rtasidagi munosabat masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Konnotatsiya, denotatsiya, konnotativ ma'no, ekspressivlik, emotsional ma'no, stilistik ma'no, pragmatik ma'no, leksik semantika, lingvistik belgi, ingrent va adgerent konnotatsiya, zamonaviy tilshunoslik.

STUDY OF CONNOTATIVE MEANING IN MODERN LINGUISTICS

Mustafakulova Maftuna

Senior Lecturer

Jizzakh State Pedagogical University

Annotation. This article analyzes the scientific and theoretical study of the phenomenon of connotative meaning in modern linguistics. The article examines the history of the emergence of the term "connotation", how it is interpreted in various schools and areas of linguistics. In addition, the study of connotation in semantic, psycholinguistic and purely linguistic areas, its division into groups (Bloomfield, Arnold, Komlev classifications), as well as the relationship between denotation and connotation are covered.

Keywords: Connotation, denotation, connotative meaning, expressiveness, emotional meaning, stylistic meaning, pragmatic meaning, lexical semantics, linguistic sign, ingrained and adherent connotation, modern linguistics.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i11/n06>

Har bir tilning lug'at boyligida muayyan bir tilda so'zlashuvchining dunyoqarashi, ruhiyati, madaniyati, ruhiy olamni anglash bilan bog'liq hodisalarni anglatuvchi so'zlar mavjud. Bunday so'zlar ma'nosida axborot yetkazuvchi omillaridan tashqari, konnotativ jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi. "Konnotatsiya" terminining paydo bo'lish davri o'tgan asrga to'g'ri keladi, bu davr ichida esa uning mazmuni bir necha marta o'zgarishlarga uchragan. Zamonaviy tilshunoslikda ham konnotatsiya hodisasi yaxlit bir tushunchaga ega emas. Masalan, Sh. Balli konnotativ hodisasini "stilistik qo'shma ma'no", L.A.Novikov "emotsional ma'no", D.N.Shmekeev esa "emotsional qatlamlash", T.G.Vinokur va Yu.M.Skrebnovlar esa "stilistik ma'no", L.A.Kisilyova va V.N.Komissarovlar "pragmatik ma'no", V.G.Gak "potentsial belgilar", Ye.M.Vereshagin va V.G.Kostomarovlar "leksik fon" kabi talqinlarda keltirishgan. Bugungi kunda, konnotatsiya haqida bir qator nazariyalar mavjud, masalan, V.Alston taklif qilgan falsafiy, L.Blumfeld, V.N.Teliya va boshqa bir nechta tilshunos olimlarga tegishli lingvistik, R.Bartning semiotik, A.A.Leontyev ilgari surgan psixologik va E.S.Aznaurova, K.A.Dolinin taklif qilgan stilistik nazariylardir[1].

Yevropa tilshunosligida konnotatsiya termini A.K.Jolkovskiy, K.L.Byuler, A.V.Isachenko, R.Tokarskiy, Ye.Bartminskiy kabi yetuk olimlarning ilmiy asarlarida qo'llanilgan. Semasiologlar

konnotatsiyani ekspressiv bo'yoq, emotiv ifoda deb baholaydilar. Psixologik yo'nalishdagi tadqiqotlarda esa konnotatsiyaga semantik assotsiatsiyalar sifatida yondashiladi.

I.V.Arnold, V.N.Teliya, E.S.Aznaurova, E.I.Shendels, V.I.Shakhovskiyalar konnotation musika notalari kabi so'zning lexikon tarkibini tarkib topgan ma'no tuzilishining elementi sifatida baholanadi.

Konnotatsiya hodisasining mohiyati, uning til va nutqdagi o'rni masalasi hozirgi kunda ko'plab tadqiqot ishlarida ilmiy tahlil etilgan[11]. Konnotatsiya - til birligining konnotativ ma'no (stilistik, ekspressiv munosabat kabi qo'shimcha ma'no yoki ma'nolarning) ifodasi sanalib, uning asl mohiyati denotatsiya yoki denotativ ma'no bilan qiyosan o'rganilganda yuzaga chiqadi. Shunga ko'ra, mazkur masala tahliliga oid qator ishlarda atash va konnotativ ma'noni farqlash, konnotatsiya va denotatsiya munosabati, ularning o'zaro aloqasi va farqli jihatlari, konnotatsiya va sinonimiyaning lingvistik maqomini belgilash masalasiga munosabat bildirildi.

So'zdagi pragmatik ma'noni o'rganishda G.Rosslerning ishi ham mavjud bo'lib, lingvistik belgining semiotik modeliga tayanadi. Olim konnotatsiyani kommunikativ-pragmatik hodisa deb tushunadi va so'zning denotativ tarkibiy qismi qo'shimcha ravishda aniq yoki yashirin konnotativ ma'no tarkibiy qismlarini o'z ichiga olishi mumkinligiga e'tibor qaratadi. Ular ma'lum bir kommunikativ vaziyatda faollashadi yoki amalga oshirilmasligi ham mumkin. Denotativ komponentlar, aksincha, odatiy ma'noda bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida ham konnotatsiya, konnotativ ma'nolar ko'plab ilmiy ishlarning obyekti bo'ldi va ilmiy ish mavzusiga aylandi. Tilshunoslikda konnotatsiya hodisasining uch yo'nalishda tadqiq etilganligini kuzatish mumkin: semantik, psixolingvistik va sof lingvistik yo'nalishlar[10]. Jumladan, o'zbek tilshunosligida M.Mamadaliyevning "O'zbek tilida nominativ birliklarning konotativ aspekti", Mamarajabovanning "O'zbek tilida sifatlarning konnotativ ma'nolari", N. Ahmedovanning "O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalarida, shuningdek, E. Qilichev, B. Qilichevlarning "Konnotativ ma'no va uning ifodalanishi" nomli ilmiy maqolasida mazkur masala tahlili yuzasidan qimmatli nazariy xulosalar chiqarilgan[3].

M.Mamadaliyeva konnotatsiya pragmatik hodisa sifatida baho munosabati bilan uzviy bog'liqligini, unga so'z (va boshqa birlik)larning barcha ma'nolari asosida obyektivlik va subyektivliklarni bog'lovchi vosita sifatida munosabatda bo'lish lozimligini ta'kidlaydi[12].

E.Qilichev, B.Qilichevlar esa konnotativ ma'noning (K) so'z semantikasidan (S) denotativ ma'no (D) ajratilgandan keyin hosil bo'lgan ayirmaga tangligini ko'rsatadilar. Ya'ni: $K=S-D$. Ularning qayd etishicha, so'zlarning konnotativ ma'nosi nafaqat kontekstda, balki muayyan sinonimik qatorda ham yuzaga chiqishi mumkin. Bunda konnotativ ma'no so'zlarning pragmatik munosabati asosida belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, olimlar konnotatsiyaning ingrent va adgereng turlarini farqlaydilar. Ularning fikricha, ingrent konnotatsiya bu so'zning kontekstdan tashqari olingan holatda anglanadigan, adgerent konnotatsiya - so'zning ma'lum kontekst asosida anglashiluvchi konnotativ ma'nosidir[4].

E.Sabreev «Badiiy tasvirning leksik vositalari» monografiyasida so'zlardagi denotativ va konnotativ ma'nolar haqida dastlabki ma'lumotlar berilgan bo'lsa, G.T.Yaxshiyeva, A.A.Haydarovlarning tadqiqotlarida fonostilistik vositalardagi konnotativ ma'nolarga e'tibor qaratildi. M.Mamadaliyevaning «O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti» nomli ilmiy tadqiqotida ot leksemalarining morfologik shakllari o'z grammatik ma'nosidan

tashqari qo'shimcha ifoda ma'nosiga ham ega ekanligi ochib berilgan. M.Sodiqova esa o'zbek tilidagi fe'l turkumi konnotativ ma'nolarini semantik-stilistik xususiyatlarini tahlil va tadqiq qilgan. "O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi" ilmiy tadqiqotning muallifi N.Axmedova konnotatsiya semantikaning ekspressivlikni belgilovchi makrokomponenti ekanligi, nomlash jarayonida voqelikni baholash sifatida paydo bo'lishini ochib bergan "Badiiy tasvirning leksik vositalari" monografiyasida, so'zlar bilan ekspressiv va taklif qiluvchi ma'nolarga ilk havolalar berilgan. Konnotatsiya tilning hissiy faoliyatiga tegishli bo'lib, u so'zlovchining ma'lumotning predmetiga, suhbatdoshning shaxsiga, muloqot vaziyatiga bo'lgan munosabatining sub'yektiv ifodasidir. Til birliklari yoki tagma'no, boshqacha qilib aytganda, ma'noning kengaymaganligi, butun matn bo'ylab yoyilmaganligining qo'shimcha hissiy, baholash va stilistik bo'yoqdorligida ifoda qilinuvchi konnotatsiya, nafaqat semantikaning, balki pragmatikaning tadqiqot predmeti hisoblanadi[9]. Masalan, "Romeo va Djullyeta" asari bosh qahramoni Djulyettani turlicha nomlashda qo'llanilgan "ladybird" ekspressiv bo'yoqdorlik beruvchi ot orqali muallif Djullyetaga nafaqat qo'shimcha nom beryapti, balki qahramonning qaysidir xislatlari ushbu jonzotga xos bo'lgan tabiatida yashirilib yotganligini o'zining ichki hissiyotini ifodalash bilan o'quvchining xis-xayajonlarini uyg'otishga intiladi: "What, lamb! What, ladybird! God forbid! Where's this girl? What, Juliet!" – Nurse" (William Shakespeare's Romeo and Juliet, Act I, Scene III).

K.O.Erdman "So'z ma'nosi" nomli asarida so'zning uch tomonlama bo'linishini keltiradi: konseptual mazmun, qo'shimcha ma'no va hissiy qiymat. Ikkinchi va uchinchi guruhlar konnotatsiya umumiy nomi ostida tilshunoslikda o'rin egallagan. Erdmanning ta'kidlashicha, qo'shimcha ma'no va hissiy qadriyat ongda beixtiyor paydo bo'ladi, biroq ular til bilan mustahkam bog'liqdir va so'z ifoda etuvchi ma'noga kontseptual mazmun bilan teng ravishda tegishli bo'ladi. "Konnotatsiya" terminini bunday tushunishga so'zlarning affektiv (his-hayajonli) tomonini psixolingvistik tadqiqotlar, shu bilan birga belgilarni baholovchi, stilistik, assotsiativ-obrazli idrokning haqiqiylikni ko'rsatib bergan assotsiativ eksperimentlar imkon yaratdi.

Konnotatsiya tushunchasiga aniq ta'rif berishda bir nechta olimlarni e'tirof etish mumkin. O.A.Axmanovanning fikricha, konnotatsiya so'zning ma'nosidagi emotsional elementlar sifatida qabul qilinadi. Ya'ni, konnotatsiya bu so'zning mazmuni yoki ifodasining qo'shimcha ma'nosi, uning bosh mazmuni to'ldirib u bilan bir vaqtda namoyon bo'ladigan, semantik va stilistik belgilar so'zga turli hildagi ekspressiv va hissiy turlarga hizmat qiladi hamda ifodaga tantanavorlik, o'ynoqilik, erkinlik, betakalluflik beradi[7]. Yu.D.Apresyan konnotatsiyani mazmunidan intensiya, modallik doira, presuppozitsiya, ma'noning baholovchi komponenti, ma'noning ixtiyoriy yoki kuchsiz komponenti, semantik va sintaktik valentlik kabi tushunchalarni chiqarib tashlagan holda tor aspektda tushunadi. Ushbu nuqtai nazarga ko'ra, "konnotatsiya" termini quyidagi ta'rif bilan chegaralanadi: "leksemaning konnotatsiyalari deyilganda biz lisoniy hamjamiyatda tan olingan tegishli predmet yoki haqiqatga doir bahoni o'zida mujassamlashtirgan ikkinchi darajali, ammo turg'un belgilarni ataymiz[5].

L.Blumfeldning guruhlashtirishiga ko'ra, konnotatsiya gapiruvchining vaziyati, yashash joyi, kasbi kabi omillarga bog'liq. Unga ko'ra quyidagilarni ajratish mumkin:

- gapiruvchining ijtimoiy qatlamiga ko'ra (devona, daydi, qishloq odami);
- gapiruvchining istiqomat qilish hududiga ko'ra;

- gapiruvchining kasbiy faoliyatiga ko'ra (turli kasblarga termin va atamlardan foydalanish);

- gapiruvchining stilistik kompetentsiyasiga ko'ra (ilmiy, og'zaki, badiiy va hokazo)[8].

Ushbu klassifikatsiya asosan tilshunoslikning chegaralaridan tashqaridagi omillarga bog'liq, ya'ni so'zni konkret bir vaziyatda, geografik hududda qo'llash kabilardir. Blumfeldga ko'ra konnotatsiya hodisasi nafaqat nutqda namoyon bo'ladi, balki, u madaniyatshunoslik, etnologiya, geografiya, sotsiologiya kabi sohalarga ham bevosita aloqador.

I.V.Arnold konnotatsiyaning turlari sifatida quyidagilarni ajratadi: *stilistik, hissiy, baholovchi, ekspressiv*. Stilistik konnotatsiyalar so'z qo'llaniladigan vaziyatlardagi assotsiatsiyani aks etadi: ijtimoiy vaziyatlar (rasmiy, norasmiy va boshqalar, hamsuhbatlar o'rtasidagi ijtimoiy muloqotda (hushmuomala, qo'pol va boshqalar), ifodalashning turi va maqsadi (ilmiy adabiyot, she'riyat, rasmiy hujjatlar va boshqalar). Emotsional konnotatsiyalar tabiiyki so'z qo'llanilgan emotsional kontekstlar bilan yoki so'zning denotativ ma'nosida emotsional komponenti bilan bog'liq bo'ladi. Ekspressiv konnotatsiyalar biror-bir narsani ta'kidlovchi yoki kuchaytiruvchi so'zlarda mavjud bo'ladi. Masalan, *magnificent, gorgeous, splendid, superb*. Olimning o'zi ushbu guruhlashtirish tugallanmagan ekanligini, biroq u tahlil uchun mos ekanligini aytib o'tadi. I.V.Arnoldning ta'kidlashicha, konnotatsiya hodisasini aniqlashdagi qiyinchiliklardan biri bu mafkuraviy va siyosiy tushunchalarga oid so'zda baholovchi komponenti masalasi yotadi va bu turdagi so'zlarni alohida o'rganish zarur.[6] Blumfeldning klassifikatsiyasidan farqli ravishda, Arnold aksariyat hollarda linkvistik ko'rsatkichlarga, hususan, konnotativ ma'no u yoki bu ifodadagi o'rniga tayanadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslikda konnotatsiya hodisasi murakkab va ko'p qirrali tushuncha sifatida talqin etiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, konnotatsiya deganda faqat so'zning hissiy-baholovchi qo'shimcha ma'nosi tushunilmay, balki uning stilistik, madaniy, assotsiativ va pragmatik jihatlari ham nazarda tutiladi. Turli olimlar tomonidan taklif etilgan ta'riflar falsafiy, lingvistik, semiotik, psixologik va stilistik yondashuvlar konnotatsiya hodisasining ko'p o'lchamli tabiatini aks ettiradi. Denotativ va konnotativ ma'nolarning o'zaro munosabati tahlili shuni ko'rsatadiki, konnotativ ma'no so'z semantikasining ikkilamchi, lekin muhim tarkibiy qismi hisoblanadi ($K = S - D$ formulasi). U nutqda kontekstga bog'liq holda faollashishi yoki susayishi mumkin. Ingrement konnotatsiya so'zning o'zida mustahkamlangan bo'lsa, adgerent konnotatsiya faqat muayyan kontekstda namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Apresyan Yu.D. Leksicheskaya semantika. – M.: Nauka, 1974. – S. 44.
2. Mamadaliyeva M. Nomlovchi birliklarning ichki ma'nolari // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2000. - № -B.40-42.
3. Mamadaliyeva M. O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti: Filol. fanlar nomzodi ... diss. Avtoref. -Toshkent, 1997. -B. 29 ; Mamarajabova 3. O'zbek tilida sifatning konnotativ ma'nolari: Filol fanlari nomzodi ...diss. avtoref. - Toshkent, 2008. - B.25.; Qilichev E., Qilichev B. Konnotativ ma'no va uning ifodalanishi //O'zbektiliva adabiyoti.-Toshkent, 2006.-№ 6.-B.68-71
4. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. - T.: Fan, 1982. — B.11
5. Апресян Ю.Д. Коннотации как часть прагматики слова. В кн.: Избранные труды. Том II. Интегральное описание языка и системная лексикография. - М., Школа "Языки русской культуры", 1995. — С 159.

6. Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка : учебник для ин-тов и фак-тов. иностр. яз. / И. В. Арнольд; на англ. яз. – 3-е изд. – М. : Высш. шк., 1986. – С 48-49 с.
7. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов / О.С. Ахманова. – 2-е изд., стер. – М : УРСС : Едиториал УРСС, 2004. – С. 204.
8. Блумфилд Л. Язык / Л. Блумфилд. – М. : Прогресс, 1968. – С 156-160.
9. В. Н. Ярцева. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред., — М.: Сов. энциклопедия, 1990. — С. 236.
10. Звегинцев В.А. Семасиология. - М., 1957; Богуславский В.М. Слова и понятие; Мьипление и язык - М., 1957; Ахманова С. Словарь лингвистических терминов. - М., 1969; Шмелев Д.Н. Проблемьх семантического анализа лексики. - М., 1973; Телия В.Н. Коннотативньш аспект семантики номинативньхх единиц. - М.: Наука, 1986
11. Телия В.Н. Коннотативнўй аспект семантики номинативнўх единиц. - М.: Наука, 1986. — С. 6.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 11-son (iyun, 2026-yil). – 73 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-iyun.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.